Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich	
Biologik aktivlarning tushunchasi: iqtisodiy mazmuni va mohiyati.....	948
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy siyosatning roli: zamonaviy yondashuvlar.....	953
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	



Аналитический обзор: Развитие корпоративного управления в государственных корпорациях Узбекистана (2015–2025).....	958
Мамараджабов Фарход Бахтиярович	
O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish karidorlari	968
Nazriyev Umidjon Baxrillayevich	
Aylanma kapital bilan ishlashda samaradorlikni oshirish: korxona moliya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarida data science yondashuvlari	975
Khoshimov Doniyor, Kungratov Ilmurod Kuzibay o'g'li	
Davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning roli	982
Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda tijorat banklariga moliyaviy resurslarni jalb qilish metodologiyasini takomillashtirish	988
Hamrayev Obid Akhatovich	
Tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va uning samaradorlikka ta'siri (xorijiy tajriba).....	993
Usmonova Vasila Botirovna	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti tahlili.....	997
Akramova Nargiza Nutfillayevna	
Using integrated marketing communications (IMC) in business management	1002
Ziyayeva M.M.	
Xorijiy mamlakatlarda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish masalalari va ulardan o'zbekistonda foydalanish istiqbollari.....	1006
Jaxongirov Ilindorjon Jahongirjon o'g'li	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi xarajatlarini samarali boshqarish yo'llari.....	1011
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Mintaqada xalq hunarmandchiligida klasterlash va ekologik logistika modeli asosida savdo tizimini shakllantirish.....	1015
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
To'g'ri xarajatlar usuli va to'liq yutuvchi xarajatlar usuli tizimlarining afzalliklari va farqli jihatlari amaliy misolda.....	1019
Kholisa Kamoliddinovna Kuldosheva	
Investitsiyalarni innovatsiyalarga yo'naltirish bo'yicha xorij tajribasi	1024
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1028
Каримова Нуржахон Олим кизи	
Sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasini baholash omillari va ko'rsatkichlari.....	1032
Kudaybergenov Azamat Shamuratovich	
Namangan viloyatida ijtimoiy turizm tadbirkorligini maqsadli boshqarish mexanizmi.....	1042
Yunusova Sohiba Abdumamidovna	
Evaluating the capital asset pricing model methodology in uzbekistan companies	1048
Bunyod Usmonov	
Aholini ish bilan bandligining yangi turlari va imkoniyatlari	1055
A.B. Khayitov	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va o'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari	1059
Mamura Tadjibayeva	
Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	1064
Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari	1071
Sanaqulov Sardor Istamqulovich	



Bank xizmatlari sifati va bank daromadlariga ta'sir etuvchi omil sifatida personal faoliyatining o'rni.....	1075
Abdukaxarova Shoira Abduvahobovna	
Fond bozori raqamli iqtisodiyotda investitsiyalarni shakllantirish manbai sifatida.....	1079
Kamilova Sevara Anvarovna	
O'zbekistonda toza suv va sanitariyaning inson hayoti hamda iqtisodiy farovonlikka ta'siri: BRM-6 doirasida tahlil.....	1085
Xasanova Iroda Azizbek qizi	
Increasing the effectiveness of using marketing communications in the tourism services market.....	1090
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon ugli	
Davlat xaridlari sohasini takomillashtirish istiqbollari.....	1095
Bazarov Nazirjon Sobirovich	
Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini xo'jalik yurituvchi subyektlarda takomillashtirish.....	1103
Xayitboeva Laylo Oybekovna	
Davlat moliyaviy nazorati tizimida tashqi audit: rivojlangan mamlakatlar amaliyoti.....	1109
Kuliyev Komil Shuxratovich, A.Astanovulov	
Moliyaviy instrumentlarni hisobga olishda biznes modelning ahamiyati va amaliy yondashuvlar.....	1114
Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Tijorat banklarida risklarni boshqarishning ustuvor yo'nalishlari.....	1118
Tursunov Ilxom Toirovich	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga tasir etuvchi omillarni baholash.....	1124
Yuldasheva Gulmira	
Managing tourism in fragile ecosystems: a case study approach.....	1128
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash uslublari.....	1134
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Зарубежный опыт развития инновационной деятельности предприятий энергетической отрасли.....	1141
Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич	
Leveraging machine learning for big data analytics: a strategic overview.....	1148
Ismaylov Timur Kuanishbaevich, Kurbanbaev Bakhtiyar Bakhtovich, Orazbayev Aqilbay Jenisbay uli	
Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritilishi.....	1152
Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li	
"Yengil sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari haqida".....	1158
Otaxanova Umida Olim qizi	
Investitsion-qurilish jaryonlarini samarali boshqarishning tashkiliy modellari va ulardan foydalanish usullari.....	1162
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati bo'yicha nazariy asoslar.....	1169
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Adoption of electric vehicles in logistics: opportunities and challenges in Uzbekistan.....	1175
Oblokulova Parvina	
Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari.....	1182
Jurayev Abdug'affor Sofarovich, Nazirova Sayyora Baxtiyorovna	
Raqamli tranformatsiya jarayonlarining mehnat bozori konyukturasiga ta'siri.....	1187
Fayzullayev Nurulla Baxromovich, Xudaybergenova Shukurjon Erkinovna	
Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlarini rivojlantirishning o'ziga xos yondashuvi.....	1194
Niyozova Shohsanam Nuritdinovna	



Auditorlik xulosalarini shakllantirishda auditorlik dalillariga qo'yiladigan talablar.....	1199
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	
Qishloq xo'jaligi sohasini takomillashtirishda investitsion loyihalarning iqtisodiy mohiyati.....	1203
Israilova Xikoyat Musakulovna	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari.....	1207
Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna	
Eko va agro-turizm da raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishning istiqbollari	1212
Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna	
The importance of the cluster system in the agricultural field.....	1217
Sherkulov Shokhrukh Erkin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'llari.....	1221
Mardonov Mashrab Mansurovich, Muxtorov Abduxolik Abduxalimovich	
Aksiz solig'i amaliyotining genezisi, milliy xususiyatlari, turlari va vazifalarining nazariy jihatlar.....	1225
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	



AKSIZ SOLIG'I AMALIYOTINING GENEZISI, MILLIY XUSUSIYATLARI, TURLARI VA VAZIFALARINING NAZARIY JIHATLARI



Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
«Soliq va soliqlarga tortish» kafedrasida dotsenti

ORCID: 0000-0002-4750-8907

o.shodiev@tsue.uz

Annotatsiya: Maqolada aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati, genezisi, O'zbekiston soliqlarga tortish amaliyotidagi xususiyatlari, turlari va vazifalarining nazariy jihatlari yoritilgan hamda aksiz solig'i ma'murchiligiga oid ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: byudjet, soliq tizimi, soliq, soliqlarga tortish, egri soliqlar, aksiz solig'i, individual aksizlar, universal aksizlar, aksiz osti tovarlari, aksiz markasi.

Abstract: The article examines the economic essence, genesis of excise tax, theoretical aspects of the features, types and tasks in tax practice of Uzbekistan, and also formulates scientific conclusions regarding the administration of excise tax.

Key words: budget, tax system, tax, taxation, indirect taxes, excise tax, individual excises, universal excises, excisable goods, excise stamp.

Аннотация: В статье рассматриваются экономическая сущность, генезис акцизного налога, теоретические аспекты особенностей, видов и задач в налоговой практики Узбекистана, а также формулируются научные выводы относительно администрирования акцизного налога.

Ключевые слова: бюджет, налоговая система, налог, налогообложение, косвенные налоги, акцизы, индивидуальные акцизы, универсальные акцизы, подакцизные товары, акцизная марка.

KIRISH

Mamlakatimizda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar chuqurlashayotgan davrda, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida bo'lgani kabi budjet-soliq sohasida ham chuqur o'zgarishlarni amalga oshirish hozirgi kunning asosiy talabidir. Moliya sohasida olib borilayotgan islohotlarning markaziy bo'g'inida soliq siyosatini shakllantirish va budjet xarajatlaridan yanada samarali foydalanish, budjet taqchilligini kamaytirish muammolari, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tutgan o'rnini oshirish masalalari turadi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning erkinlashuvi jarayoni va islohotlarning chuqurlashuvi jarayoni soliq tizimini ham muntazam takomillashtirib borishni talab etmoqda. Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi [1].

Soliq tizimida eng ichki o'zgaruvchan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ko'plab omillari bilan to'qnashuvchi soliq bu - aksiz solig'idir. Shu bois, aksiz solig'ining mohiyatini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga bog'liq holda o'rganish eng dolzarb muammolardan bo'lib kelmoqda [2]. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, aksiz solig'ining mohiyati doimo egri soliqlar doirasida o'rganib kelingan. Aksiz solig'i egri soliq bo'lganligi sababli uning iqtisodiy mohiyati davlat bilan yuridik shaxslar o'rtasida vujudga keluvchi ob'ektiv majburiy to'lovlarga



asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali xarakterlanadi. Shu bois, aksiz solig'iga o'ziga xos fiskal iqtisodiy kategoriya sifatida qaralishi lozimdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati, tabiati, kelib chiqishi, o'ziga xos xususiyatlari va soliq tizimidagi ahamiyati yuzasidan mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Xususan:

M.V.Romanovskiy va O.V.Vrublevskayalarning fikricha: «Aksizlar, qo'shilgan qiymat solig'i singari, aksiz solig'i solinadigan tovar bahosiga ustama sifatida qo'yiluvchi federal egri soliqlardir» [3].

Prof. D.G.Chernikning ta'kidlashicha: «Aksizlar egri soliqning bir turi bo'lib, alohida mahsulot turlariga nisbatan solinadi. Aksizlar aksiz to'lanadigan mahsulotlar narxi tarkibiga kiritiladi, asosan yakuniy mahsulot narxi darajasini belgilaydi» [4].

B.K.Tuxliyev va A.T.Agzamovlar «Aksizlar - tovarlar uchun qo'yiladigan bilvosita soliqlarning bir turi bo'lib, qo'shilgan qiymat solig'idan farqli ma'lum bir chegaralangan tur va guruhdagi mahsulotlarning narxiga qo'shiladi» [5] - deb ta'kidlashadi.

Prof. M.Usmanova: «Aksiz solig'i iqtisodiy mohiyatiga ko'ra egri soliq bo'lib, umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. U QQSdan farqli chegaralangan mahsulotlar narxiga yoki ko'rsatilayotgan xizmatlarning tarifiga qo'shiladi» [6] – deb izohlaydi.

A.Toshqulov va S.Xudoyqulovlar o'z tadqiqotlarida aksiz solig'ining ta'siri xususida quyidagilarni ta'kidlashadi: «Aksiz solig'iga tortiladigan mahsulotlarning tannarxiga soliq stavkalarining ta'siri aksiz osti shaklidagi ayrim tovarlarni iste'mol jarayoni tartibga solinadi» [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy mushohada, ekspert baholash usuli, abstrakt-mantiqiy fikrlash, tanlanma adabiyotlar tahlili, induktiv va deduktiv, qiyosiy va tizimli tahlil kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aksiz solig'i rivojlangan xorijiy davlatlarda ham davlatning umum soliq siyosatida muhim o'rin egallab kelmoqda. Respublikamizda qo'llanilayotgan aksiz solig'i horijiy davlatlar aksiz solig'i bilan o'xshash tomonlarga, shu jumladan o'ziga xos xususiyatlarga ham egadir, jumladan:

cheklangan tovarlar guruhiga solinadi, ish va xizmatlar bundan mustasno;

aksiz osti tovarlariga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'i solish bazasida aksiz solig'i summasi hisobga olinadi.

Demak, aksiz solig'i korxona mahsulotlari va xizmatlari bahosi ustiga yoki tarifiga ustama shaklda to'g'ridan to'g'ri kiritiluvchi egri soliq turi hisoblanadi. Aksizlar sotilayotgan mahsulotlar bahosi ustiga ustama shaklda qo'yiladi va ularning pirovard to'lovchisi bo'lib, oxirgi iste'molchi hisoblanadi.

Tadqiqot ob'ektidan kelib chiqib, asosiy egri soliqlardan biri bo'lgan aksiz solig'ining kelib chiqishi va rivojlanishi tarixi xususida to'xtalamiz. Dastlab egri soliqlar ayrim tovar turlari (tuz, tamaki, aroq mahsulotlari, gugurt, shakar va boshqa keng iste'mol mollari)ga aynan aksiz solig'i ko'rinishida namoyon bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan aksiz osti tovarlari ro'yxati kengayib borgan. O'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, soliqqa tortishning aksizli shakli keng xalq ommasi iste'molidagi ommaviy tovarlarni soliqqa tortish jarayonidagina samara berishi mumkin bo'lgan [8].

Qadimda aksizlarni boshqa nomlar bilan boj, to'lov, yig'im yoki sodda qilib soliq deb atashganlar. Aksizlarning o'sha davrda amal qilgan soliqqa tortish mexanizmi to'g'risida taxminiy ma'lumotlarga mavjudligi uning ilk paydo bo'lgan davrini aniqlashga imkon bermaydi. Masalan, xalq tribunlari Tiberiy va Gay Grakxov (er. avv. 162-133 va 153-121 yy.) davrlarida Rim g'aznasiga qullarni ozod etishdan, shu bilan birga o'z shaxsiy iste'moli uchun zarur bo'lmagan tovarlarni dengiz orqali Rimga olib kelinishdan yig'imlar tushib turgan. Yuqoridagi ikki holatda ham, odatda hasham buyumlar soliqqa tortilgan [9].

Qadimgi Misrda XII-XIIIchi sulolalar davrida (er. avv. ikkinchi ming yillik) pivoga soliq solingan [10].

Albatta, bu to'lovlar hozirgi talqindagi aksizlar bo'lmashligi mumkin, lekin ularni aksizlarning dastlabki namunalari sifatida e'tiborga olish lozimdir.

Tarixiy manbalarga ko'ra, Angliyada Kromvel davrida respublikaning yigirma yil amal qilishi davomida aksizlarning ikki yuzga yaqin turi joriy etilgan. Bunda har xil turdagi ob'ektlar soliqqa tortilgan, masalan, poxol kukuni yoki yog' uchun quti idishlar shular jumlasidandir. XVII asrda Gollandiyada aksiz soliqlarining turi shunchalik ko'p ediki, tarixchi de-Vitta so'zlariga qaraganda, mehmonxonada tortiq qilingan baliq bo'lagiga 34 xil aksiz soliqlari to'g'ri kelgan [11]. Demak, aksizlar, bojlarni hisobga olmaganda soliqqa tortishning eng qadimgi shaklidir.



«Aksiz» termini, bir qator tadqiqotchilar fikricha, gollandcha *exijs* (qadim fransuzcha *accise*) soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, «soliqqa tortish maqsadida baholash» degan maʼnoni anglatadi. Bundan tashqari quyidagicha mulohaza ham mavjud, yaʼni «aksiz» soʻzi lotincha *accidere* (kesib olmoq, kesmoq) soʻzidan olingan boʻlib, maʼnosi soliqqa tortish maqsadida idishdagi ichimlik miqdorini oʻlchash uchun foydalaniladigan maxsus choʻpdagi kertma belgini anglatgan [12].

Egri soliq sifatida aksiz soligʻining qoʻshilgan qiymat soligʻidan farqlanuvchi xususiyatli jihatlarini aytib oʻtish maqsadga muvofiqdir, yaʼni:

aksiz soligʻida cheklangan turdagi aksiz osti tovarlarini sotish oboroti soliqqa tortiladigan obʼekt boʻlib hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, qoʻshilgan qiymat soligʻidagi soliqqa tortish obʼekti boʻlgan ish va xizmatlar aksiz soligʻiga tortilmaydi;

agar qoʻshilgan qiymat soligʻi tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashning barcha bosqichlarida vujudga kelsa va undirilsa, aksizlar esa faqat ishlab chiqarish sohasidagina amal qiladi. Ushbu qoidadan Oʻzbekiston Respublikasi hududiga olib kelinayotgan aksizosti mahsulotlari va tovarlari istisnodir. Madomiki, ushbu holatda aksiz soligʻini toʻlovchilar boʻlib, aksiz osti mahsulotlarini sotib oluvchi va qayta sotuvchi tashkilotlar hisoblanadi.

Aksiz soligʻining iqtisodiy mohiyati byudjet tushumini barqarorligini taʼminlash orqali xalq xoʻjaligi manfaatlarini qondirishga koʻproq mablagʻlarni jalb ettirish orqali namoyon boʻlsa, uning ijtimoiy mohiyati aholining, yaʼni asosiy isteʼmolchilarning toʻlov qobiliyatlarini oshishida oʻz ifodasini topadi. Bu esa aksiz soligʻi obʼektlari (aksiz osti tovarlari)ni qisqartirilishida, soliq stavkalari pasayishida, aholi toʻlov qobiliyatini oʻsishida namoyon boʻladi. Shuni ham taʼkidlab oʻtish kerakki, subʼektlar aksiz soligʻi isteʼmolchilari sifatida yuzaga kelishi tabiiydir [2].

Aksiz soligʻini mohiyatini ochishda u bajaradigan vazifalarni bilish muhimdir. Shu jihatdan uning quyidagi vazifalarini alohida taʼkidlab oʻtmoqchimiz:

birinchidan, mamlakat byudjetining muhim daromad manbalaridan biri sanaladi. Soliq tizimi rivojlanish bosqichini boshdan kechirayotgan barcha davlatlar singari, mamlakatimizda ham aksiz orqali daromadlarni tez va oson yigʻish imkoniyatlari yuzaga keladi. Fransuz iqtisodchisi F. Demezoni taʼbiri bilan aytganda «aksizlarning birgina oʻzi boshqa barcha soliqlar keltirishi mumkin boʻlgan tushumlarni va undan ham koʻproqni berishga qodirdir» [13].

ikkinchidan, aksiz osti tovarlari isteʼmolini cheklash (asosan ijtimoiy zararli tovarlar) orqali muayan bozor doirasida talab va taklifni tartibga solish. Iqtisodiy oʻsish doirasini boshqarishda aksizosti tovarlar roʻyxatini belgilash orqali davlat yalpi talab va taklifni egiluvchanligi taʼminlaydi;

uchinchidan, davlatning milliy bozorni himoya qilish vazifasi aksiz soligʻi orqali taʼminlanadiki, bunda yuqori soliq stavkalaridan foydalaniladi;


toʻrtinchidan, aksiz soligʻi monopol mavqedagi tovar ishlab chiqaruvchi yoki aniq mahsulot turini progressiv soliqqa tortish vazifasini oʻtaydi;

beshinchidan, aksiz soligʻi aholini boy badavlat qatlamlari daromadlarini qayta soliqqa tortish usuli boʻlib hisoblanadi. Chunki aksiz soligʻi asosan nufuzli (qiymati yuqori) tovarlarga qoʻllaniladiki, bunday tovarlarni asosiy isteʼmolchilari boy-badavlat shaxslar hisoblanadi.

Shunday qilib, aksiz soligʻining mohiyati obʼektiv pul mablagʻlar taqsimot doirasida yuzaga keladigan ayrim ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yuzaga keltirishda oʻz aksini topadi. Lekin shu bilan birga taʼkidlash lozimki, aksiz soligʻi faqat qiymat taqsimotida yuzaga keladigan pul munosabatlarida oʻz ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini shakllantiradi [2].

Iqtisodiy adabiyotlarda aksizlarni undirish usuliga koʻra individual va universal turlari haqida soʻz yuritiladi [14].

Buni quyidagi rasmdan ham koʻrish mumkin:



1-Rasm. Aksizlarni undirish usuliga koʻra tasniflanishi



Individual aksizlar tovar birligidan qat'iy stavkalarda undiriladi. Soliqqa tortish ob'ekti sifatida esa alohida olingan tovarlar (alkogol ichimliklari, tamaki, benzin va boshqalar) yuzaga chiqadi. Aksiz stavkalari quyidagicha o'rnatiladi: bir-biridan kam farq qiluvchi tovar turlari (tuz, gugurt) uchun - donalarda; sifati va quvvati kabi belgilariga ko'ra farqlanuvchi tovarlar (vino, yog', gazlamalar) uchun - differensiallashgan holda; turlicha navlari turli xil bahoda sotiladigan bir xildagi tovarlar (tamaki mahsulotlari) uchun - o'rtacha.

Universal aksizlar (oborotdan soliq, sotuvga solinadigan soliq) mamlakat ichkarisida ishlab chiqariladigan tovarlardan olinadi, ayrim holatlarda esa import mahsulotlari yoki ko'rsatilayotgan xizmatlarning pul aylanmasidan ham olinishi mumkin. Individual aksizga nisbatan ushbu soliq turining afzallik tomoni shundaki, u byudjet daromadlarini soliq stavkalarini oshirmasdan ko'paytirish imkonini beradi. Ya'ni, iste'mol tovarlari nomenklaturasining kengayishi bilan byudjet daromatlari oshadi. Bundan tashqari, ushbu yo'l bilan katta miqdordagi tovarlar davlat nazorati ostiga olinadi.

Hozirgi vaqtda bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan barcha davlatlarda aksiz solig'i qo'llaniladi. O'zbekiston respublikasida aksiz solig'i birinchi bor 1992-yilda O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi Qonuniga, iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi munosabati bilan unga 1992-yil 14-yanvarda kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar asosida joriy etildi.

Aksiz solig'i joriy qilinishining asosiy shartlari quyidagilardan iboratdir:

fiskal maqsadda, ya'ni byudjetni mablag' bilan ta'minlash maqsadida;

rentabelligi yuqori bo'lgan mahsulotlarga nisbatan o'rnatiladi (maqsad bunday mahsulotni ishlab chiqaruvchilar ixtiyoridagi ortiqcha daromadning byudjetga olib qo'yilishidir);

birinchi ehtiyoj va kundalik zarurat bo'lmagan tovarlarga nisbatan o'rnatiladi (u holatda aksiz solig'i orqali aholining yuqori daromadli qatlami daromadlarini qayta taqsimlash ko'zda tutiladi. Bu qayta taqsimlanish byudjet orqali yuz berib, ijtimoiy soha ham moliyalashtiriladi) [18].

Demak, aksiz solig'i o'zgacha, alohida soliq turi bo'lib, ommaviy talabga ega tovar va xizmatlarga, shuningdek zeb-ziynat buyumlariga o'rnatiladi. Aksizlar orqali davlat byudjeti daromadlarining salmoqli qismi ta'minlanadi. U ishlab chiqarishga, uning o'sishini rag'batlantirishga, kapitalning jamg'arish jarayonini kuchaytirishga (yoki susaytirishga) hamda aholini to'lov qobiliyatini kengaytirishga (yoki qisqartirishga) va shu kabi tadbirlarni amalga oshirishda muhim o'rinni egallaydi.

Aksiz solig'ini tadqiq etish natijasida uning iqtisodiy mohiyatini ifodalovchi quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

aksizlarning joriy etilishining asosiy sababi sifatida quyidagilarni ta'kidlab o'tish lozimdir: aksizlar yordamida tovarlar qiymatining ma'lum qismi byudjetga undiriladi. Mazkur, ushbu tovarlarni ishlab chiqarishning yuqori samarasi, yoki ularning iste'mol xususiyatlari bilan bog'liq bo'lmasdan, balki aksizosti tovarlarini ishlab chiqarish va sotishning alohida olingan shartlarining natijasidir. Aksizosti tovarlar qiymatining ma'lum bir qismi byudjetga undirilmaganda, ushbu mahsulot ishlab chiqaruvchilar boshqa korxonalarga nisbatan asossiz darajadagi yuqori daromatlarga ega bo'lgan bo'lardi. Masalan, vino-arog mahsulotlarining chakana bahosi shunday darajada belgilab qo'yilganki, agar aksiz solig'i joriy etilmaganda, ushbu mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar rentabelligi yuz va undan ham ortiq foizlarni tashkil etgan bo'lar edi. Bu shuningdek, tamaki mahsulotlariga va boshqa turdagi aksizosti tovarlariga ham taalluqlidir.

aksizlar - xaridorlar tomonidan to'lanadigan va tovarlar bahosi tarkibida yotuvchi egri soliq turidir;

odatda, aksizlar davlat monopoliyasi mavqeiga ega bo'lgan, aholi uchun mo'ljallangan yuqori rentabelli mahsulot va tovarlarga o'rnatiladi;

aksizlar nafaqat mamlakat ichida ishlab chiqariladigan mahsulotlarga, balki import tovarlariga ham o'rnatiladi;

aksizlarning joriy etilishi ungacha amalda bo'lgan oborot solig'ining bekor bo'lishiga olib keldi;

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning o'tgan qisqa davri mobaynida aksizlar davlat byudjetini barqaror daromad bilan ta'minlovchi umumdavlat solig'iga aylandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, aksiz - bu tuzatish solig'idir. Aksiz solig'iga salbiy tashqi ta'sir (samara)ga olib keluvchi (alkogolli va tamaki mahsulotlariga nisbatan) tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'mol qiluvchilar tortiladi. U davlatning sog'liqni saqlash, jamoat tartibini tutib turish va boshqa tadbirlar bilan bog'liq xarajatlarning ma'lum bir qismini bunday tovarlar ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchilar zimmasiga yuklash imkonini beradi. Ushbu holatda aksiz solig'i alkogolli va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste'mol qilish natijasida vujudga keluvchi tashqi salbiy ta'sirni kamaytirishga qaratilgandir. Boshqa tomondan esa, aksizlar xaridorlarning real daromadlarini kamayishiga olib kelganligi bois, u regressiv xarakterga ega, ya'ni soliq to'lovchilarning daromadi kamaygan sari aksiz solig'ining o'rtacha stavkasi oshib boradi. Asosan, aksizlar aholi daromadlarini qayta taqsimlash va davlatning moliyaviy resurslarini jalb etish maqsadida qo'llaniladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. J.R.Zaynalov. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. Samarqand. 2002. 202-bet.
3. Налоги и налогообложение. 5-е изд. / Под ред. М.В.Романовского, О.В.Врублевской. – СПб.: Питер, 2006. С.496
4. Налоги и налогообложение: Учебник / Д.Г.Черник и др. 2-е изд., доп. и перераб. – М.: ИНФРА-М, 2004. С.328
5. B.K.Tuxliyev, A.T.Agzamov. Soliqlar va soliqqa tortish. (Darslik) – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022. 468-bet
6. M.Usmanova. Soliqlar va soliqqa tortish. (O'quv qo'llanma). – T.: "NIHOL PRINT" OK, 2021. 396-bet
7. A.Toshqulov, S.Xudoyqulov. Soliq nazariyasi. Darslik. – T.: "History and page", 2022. 368-bet
8. Г.П.Солжес. Налоги в системе государственно-монополистического капитализма. М., 1964. С.270
9. Т.Моммзен. История Рима: В 4 т. Ростов на Дон. 1997. Т. II. С.640
10. Р.А.Шепенко. Акцизы. – М.: «Дело» 2001. С.224
11. В.М.Пушкарева. История финансовый мысли и политики налогов. М., Инфра-М. 1996. С.256
12. V.Thuronyi. Tax Law Design and Drafting //International Monetary Fund, 1996. p. 247-248; Большой экономический словарь. М., 1999. С.531
13. В.Н.Малов, Ж.Б.Кольбер. Абсолютистская бюрократия и французское общество. М., 1991. С.248
14. Т.В.Брайчева. Государственные финансы. Санкт-Петербург «Питер». 2001. С.288
15. O.A.Shodiyev. Egri soliqlarning mohiyati, genezisi va rivojlanish tendentsiyalariga oid nazariy munozaralar xususida. //«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal, 2025-yil, may, 5-son
16. O.A.Shodiev. Ways to improve excise tax administration in Uzbekistan. // World Economics & Finance Bulletin (WEFB), Vol. 46, May, 2025
17. O.A.Shodiev. Excise tax: problems of improvement. // European Journal of Economics, Finance and Business Development ISSN (E): 2938-3633, Volume 3, Issue 5, May - 2025
18. O.A.Shodiyev. Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari. //«Moliyaviy texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali, 2023-yil, 4-son
19. O.A.Shodiev. Current state and ways of development of excise tax administration in Uzbekistan. // International Journal of Economic Perspectives, 17(12) 102-106 ISSN: 1307-1637 Vol. 17 No. 12 (2023)



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>